

# DAVLAT BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY AXBOROT

## TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI,

### NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

TDYU Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi 1-bosqich talabasi  
**Sayfiyeva Bog'dagul Umirjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi, ularning huquqiy asoslari, amaliy holati va yuzaga kelayotgan dolzARB muammolar yoritilgan. Shuningdek, xorijiy ilg'or tajribalar asosida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat infratuzilmasini shakllantirish, fuqarolar bilan interaktiv aloqalarni mustahkamlash va huquqiy islohotlar doirasida istiqbolli takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron hukumat, raqamli transformatsiya, elektron hujjat aylanishi, raqamli imzo, "Raqamli O'zbekiston-2030".

**Annotation:** This scientific article covers the application of modern information and communication technologies in the public administration system of the Republic of Uzbekistan, their legal basis, practical status and emerging urgent problems. Also, based on foreign best practices, promising proposals are put forward within the framework of digitization of public services, formation of e-government infrastructure, strengthening interactive relations with citizens and legal reforms.

**Keywords:** Information and communication technologies, e-government, digital transformation, electronic document management, digital signature, "Digital Uzbekistan-2030".

**Аннотация:** В данной научной статье рассматриваются вопросы применения современных информационно-коммуникационных технологий в системе государственного управления Республики Узбекистан, их правовая основа, практическое состояние и возникающие актуальные проблемы. Также на основе зарубежного передового опыта выдвигаются перспективные предложения в рамках цифровизации государственных услуг, формирования инфраструктуры электронного правительства, укрепления интерактивных отношений с гражданами и правовых реформ.

**Ключевые слова:** Информационно-коммуникационные технологии, электронное правительство, цифровая трансформация, электронный документооборот, электронная подпись, «Цифровой Узбекистан-2030».

XXI asr boshidan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan davlat boshqaruvi tizimiga ham chuqur kirib bordi. Juhon tajribasi ko'rsatmoqda-ki, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish natijasida davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi oshmoqda. AKT vositalari yordamida ma'muriy yuklamalar kamaymoqda, inson omilining noxolis ta'siri bartaraf etilmoqda va boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Zamonaviy raqamlashtirish tendentsiyalari inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, davlat boshqaruviga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron hukumat davlat organlari faoliyati samaradorligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan davlat islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biridir.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi ham bu global tendensiyalardan chetda qolmadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, fuqarolar bilan muloqotning soddalashtirilishi va axborot xavfsizligi tizimlarining mustahkamlanishi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

<sup>1</sup> Bekkers, V. J. J. M. va Homburg, V. M. F. (2007). Elektron hukumat haqidagi afsonalar: yangi va yaxshiroq hukumat farazlaridan tashqariga qarash. Axborot siyosati, 12(3), 1-15.

AKT vositalarining davlat boshqaruvidagi roli o'ta muhim omildir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda davlat xizmatlarining samaradorligini oshirishda, fuqarolar bilan muloqotda ochiqlik va ishonchni mustahkamlashda muhim vositaga aylangan. Elektron hukumat tizimlari, raqamli hujjat aylanishi, onlayn murojaatlar portallari, elektron identifikatsiya va elektron raqamli imzolar AKT vositalarining eng muhim turlaridan hisoblanadi.

Ushbu texnologiyalar yordamida davlat organlari o'z faoliyatini tez, samarali va eng asosiysi, shaffof tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, fuqarolar davlat xizmatlaridan foydalanishda ortiqcha vaqt va mablag' sarflashdan ozod bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasida belgilangan — “Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.”<sup>2</sup>

Mavjud huquqiy asoslar quyidagilar,jumladan:

-O'zbekiston Respublikasida AKTni davlat boshqaruviga tatbiq etish bo'yicha quyidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar amal qilmoqda:

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son) <https://old.lex.uz/docs/6445145>

-“Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonun ;

-“Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari (jumladan, 2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni);

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;

-Idoraviy me’yoriy hujjatlar va reglamentlar.

Ushbu huquqiy asoslar AKT vositalari yordamida davlat xizmatlarini ko‘rsatish, hujjatlarni elektron tarzda rasmiylashtirish, ularni identifikatsiyalash va arxivlash kabi amaliyotlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi.

Bunda elektron hukumat tushunchasi asosiy boshqaruvi tushunchalaridan biri sanaladi. Elektron hukumat davlat va fuqarolar, biznes va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan davlat boshqaruvi tizimidir. Elektron hukumatning asosiy vazifasi davlat xizmatlari ko‘rsatishning qulayligi va sifatini oshirish, shuningdek, davlat organlari o‘rtasida yanada shaffof va samarali hamkorlikni ta’minlashdan iborat.<sup>3</sup>

Qulay afzalliklarga qaramay, davlat boshqaruvi sohasida elektron hukumatni joriy etishda bir qator muammolarga duch kelibmoqda<sup>4</sup>:

• Texnologik tengsizlik. Hamma fuqarolar ham internetga va zarur raqamli ko‘nikmalarga ega emas, bu esa davlat xizmatlarini olishda tengsizlikka olib kelishi mumkin.

<sup>3</sup> Layne, K. va Li, J. (2001). To‘liq funksional elektron hukumatni rivojlantirish: to‘rt bosqichli model. Hukumat axboroti har chorak, 18(2), 122-136.

<sup>4</sup> Yusupov, N. S., Qosimjon o‘g‘li, S. A., & Akramjon o‘g‘li, A. A. (2024). INVESTITSION LOYIHALARNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUVDAN SAMARALI FOYDALANISH “LLARI. Journal of new century innovations, 54(2), 106-109

• Xavfsizlik va maxfiylik. Elektron hukumatni joriy etishda kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari muhim jihatlarga aylanib bormoqda. Ma'lumotlarning sizib chiqishi yoki noto'g'ri ishlatalishi tizimga ishonchni susaytirishi mumkin.<sup>5</sup>

Amaliy muammolar va bo'shliqlarga to'xtolib o'tadigan bo'lsak, tahlillar ko'rsatadiki, mavjud huquqiy baza umumiylar mexanizmlarni belgilab bergen bo'lsa-da, ayrim sohalarda aniqlik yetishmasligi tufayli AKTdan foydalanish samaradorligiga to'liq erishilmagan:

Elektron hujjatlarning yuridik kuchi, ayniqsa sud amaliyatida, yetarlicha aniq belgilanmagan;

AKT bilan bog'liq texnik infratuzilma ba'zi hududlarda zaif rivojlangan;

Davlat organlari o'rtaqidagi ma'lumot almashinuvini tizimi to'liq integratsiyalashmagan;

Raqamli savodxonlik darajasi pastligi sababli fuqarolar ko'p hollarda onlayn xizmatlardan foydalana olmayapti.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat organlari tomonidan kompleks yondashuv zarur bo'lib, huquqiy, texnik va tashkiliy choralar uyg'un holda ishlab chiqilishi kerak.

Dunyoning ilg'or davlatlari, xususan Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSh va Niderlandiya kabi mamlakatlar elektron boshqaruvda yuqori natijalarga erishgan. Ushbu davlatlar quyidagi tamoyillarga asoslanmoqda:

Onlayn xizmatlar "bir darcha" tamoyiliga asoslangan;

<sup>5</sup> Saidturaevich, Y. N. M. (2024). Qishloqlarda turizm faoliyatini tashkil etishning mamlakatimizda turizm tarmoqlarini kengaytirishga ta'siri. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(5), 204-207

Davlat xizmatlari avtomatlashtirilgan va fuqaroga qulay interfeysda taqdim etiladi;

Ma'lumotlar bazalari o'zaro bog'langan va xavfsiz uzatiladi;

Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston ushbu tajribani moslashtirish jarayonida, ayniqsa Estoniya modelidan ID-kartalar, mobil identifikatsiya va raqamli imzo orqali xizmatlardan foydalanish kabi jihatlarda o'rghanishi lozim. Estoniya bu sohada yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Estoniya elektron imzo tizimi elektron ovoz berish, elektron soliq deklaratsiyasi va elektron sog'liqni saqlash tizimi kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining sezilarli darajada yaxshilanishiga, ma'muriy to'siqlarning qisqarishiga olib keldi.<sup>6</sup>

Quyidagi takliflar O'zbekistonda AKT asosidagi davlat boshqaruvini huquqiy jihatdan yanada takomillashtirishga xizmat qiladi:

- Elektron hujjatlar va raqamli imzolarning sud-huquq tizimidagi maqomini mustahkamlovchi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;
- Elektron xizmatlarning yagona standartlari va ularga oid texnik reglamentlarni ishlab chiqish;
- AKT bilan ishlovchi davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bo'yicha doimiy o'quv tizimlarini joriy etish;
- Raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan umumxalq dasturlarini ishlab chiqish;
- Xalqaro tajribani chuqur o'rghanish va uni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish.

<sup>6</sup> Saidturaevich, Y. N. M. (2024). O'zbekiston Respublikasida mahalliy turizmning rivojlanishi va kamchiliklari tahlili. NOORMAL TA'LIMDAGI EVROPA JURNALI, 4(5), 127-129.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, davlat boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hozirgi globallashuv davrida nafaqat zarurat, balki majburiy tendensiyaga aylandi. Bu jarayonni muvaffaqiyatlari amalga oshirish uchun esa huquqiy asoslarning aniqligi, texnik infratuzilmaning barqarorligi va fuqarolarning raqamli savodxonligi bir butun tizimda uyg'unlashgan bo'lishi shart. Maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar O'zbekistonda raqamli davlat boshqaruvi sohasini huquqiy jihatdan isloh qilishda asosiy yo'naliishlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekkers, V. J. J. M. va Homburg, V. M. F. (2007). Elektron hukumat haqidagi afsonalar: yangi va yaxshiroq hukumat farazlaridan tashqariga qarash. Axborot siyosati, 12(3), 1-15.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)  
<https://old.lex.uz/docs/6445145>
3. Layne, K. va Li, J. (2001). To'liq funktsional elektron hukumatni rivojlantirish: to'rt bosqichli model. Hukumat axboroti har chorak, 18(2), 122-136.
4. Yusupov, N. S., Qosimjon o'g'li, S. A., & Akramjon o'g'li, A. A. (2024). INVESTITSION LOYIHALARNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUVDAN SAMARALI FOYDALANISH "LLARI. Journal of new century innovations, 54(2), 106-109
5. Saidturaevich, Y. N. M. (2024). Qishloqlarda turizm faoliyatini tashkil etishning mamlakatimizda turizm tarmoqlarini kengaytirishga ta'siri. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(5), 204-207
6. Saidturaevich, Y. N. M. (2024). O'zbekiston Respublikasida mahalliy turizmning rivojlanishi va kamchiliklari tahlili. NOFORMAL TA'LIMDAGI EVROPA JURNALI, 4(5), 127-129.